

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
TASARRUFIDAGI ANIQ FANLARGA
IXTISOSLASHTIRILGANDAVLAT UMUMTA'LIM
MAKTABI

*Boshlang'ich sinf
o`qituvchisi*

*Tosheva Dildoraning
1-a sinfida*

*“60dan 69 gacha bo'lgan
sonlar ustida bilimlaririni
mustahkamlash”*

Mavzusi uchun

DARS ISHLANMASI

I.Ta'lim berish texnologiyasi

Vaqt 45 minut	O'quvchilar soni 33 nafar
Darsning shakli va turi:	Yangi bilim beruvchi
Darsning rejasi:	<ol style="list-style-type: none">1. 60 dan 69 gacha bo'lgan sonlarni tushuntirish.2. 60 dan 69 gacha bo'lgan sonlarga doir misollar yechish.3. Yangi mavzunu mustahkamlash.
Darsning maqsadi:	<ol style="list-style-type: none">a) ta'limiy : o'quvchilarga mavzu bo'yicha bilimlar berish, ularning 50 dan 59 gacha bo'lgan sonlar ustida egallagan bilimlarini mustahkamlash; 60 dan 69 gacha bo'lgan sonlar yuzasidan bilim berish.b) tarbiyaviy: o'quvchilarni kattalarni hurmat qilish, bilim cho'qqilarini egallab, kelajakda Vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan komil inson bo'lib yetishishga undash:d) o'quvchilarning hozirjavoblik, topqirlik qobiliyatlarini, mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish.
Pedagogik vazifalar: -60 dan 69 gacha bo'lgan sonlarni tushuntirish; - 60 dan 69 gacha bo'lgan sonlarga doir misollar yechish -mavzuga oid masala yechish.	O'quv faoliyati natijalari: -60 dan 69 gacha bo'lgan sonlar yuzasidan tushunchalarga ega bo'ladilar; - 60 dan 69 gacha bo'lgan sonlarga doir berilgan misollarni yechadilar; - masala tuzadilar va uning yechimini topadilar.
Ta'lim metodlari:	Ko'rgazmali, savol-javob, didaktik o'yin
Ta'lim shakllari:	Frontal, jamoaviy va yakka tartibda ishlash.
Ta'lim vositalari:	Darslik. "Matematika" daftari, texnik vositalar, multimediali taqdimot,
Ta'lim berish sharoiti:	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan boshlang'ich sinf xonasi.
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov Yozma so'rov: chiroyli va xatosiz yozish.

2. Darsning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O`qituvchi	O`quvchi
1-bosqich. Tashkiliy qism. (3 daqiqa)	1.1.Salomlashiladi. 1.2. Ma`naniyat daqiqasi o`tkaziladi.	1.1.Navbatchi axboroti tinglanadi. 1.2. O`quvchilar dars shiorini aytadilar.
2-bosqich. O`tilganlarni takrorlash (7 daqiqa)	2.1. 50 dan 59 gacha bo`lgan sonlar ustida egallagan bilimlarini mustahkamlaydi. 2.2."Zanjir" didaktik o`yini orqali mustahkamlaydi.	2.1. Misollar orqali o`tgan mavzuni takrorlaydilar.
3-bosqich Asosiy (15 aqiqa)	3.1.Mavzu e`lon qilinadi. 3.2. 60 dan 69 gacha bo`lgan sonlaryuzasidan bilim beradi. 3.3. 60 dan 69 gacha bo`lgan sonlarga doir jadvalda berilgan misollarni yechtiradi.	3.1. Tinglaydilar. 3.2. "Sanoq sonlar suhbatini" ni tinglaydilar. 3.3.Javob beradilar.
4-bosqich Mustahkamlash (10 daqiqa)	4.1. Yangi mavzuni mustahkamlaydi. 4.2.Tarqatma material sifatida kartochkalarga yozilgan misollar tarqatiladi.	4.1. Juftliklarga ishlaydilar. 4.2. Misollar yechadilar.
5-bosqich Yakuniy (7 daqiqa)	5.1. Mavzu bo`yicha darsga yakun yasaladi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligiga o`quvchilarning e`tiborini qaratadi. 5.2.O`quvchilar ishlarini baholaydi, darsning maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 5.3. Uyga vazifa qilib 60 dan 69 gacha bo`lgan sonlarni mashq qilish namuna sifatida ko`rsatiladi.	5.1. O`z-o`zini hamda o`zaro baholashni o`tkazadilar. 5.2. Savol beradilar. 5.3.Uy vazifani belgilaydilar.

Darsning borishi

Tashkiliy qism

- a) Salomlashish;
- b) Navbatchining axborotini tinglash;
- c) Ma'naviyat daqiqasini o'tkazish;

O'qituvchi : Yurtimizda har bir yilni ma'lum nom bilan atash an'anasi mavjud. Bu yil qanday nomlanganligini bilasizmi?

O'quvchi: Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish masalasini yanada yuksaltirish maqsadida prezidentimiz – 2016-yilni yurtimizda

Sog'lom ona va bola yili, deb e'lon qilishni taklif etdilar

O'qituvchi :Sog'lom bo'lish uchun nima qilish kerak?

O'quvchi: Sog'lom bo'lish uchun tog'ri ovqatlanish, kun tartibi va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, sport bilan shug'ullanish kerak.

O'qituvchi :Yurtboshimiz nima deydilar?

Hamma: Farrzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur...

O'qituvchi :Qudratli yurtni qanday farzandlar yaratadilar?

O'quvchi: Vatanimiz kelajagini jismonan sog'lom, ma'naviyati yuksak, intellektual salohiyati kuchli farzandlar yaratadilar.

O'qituvchi: Bo'lay desang bog'bon

Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimai-ki qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.
O'quvchi sendan talab
Maktabga bor ertalab .
O'qi berib mehringni,
Qo'yib ko'ngil ,zehningni.

Bobolarimiz nima deydilar?

O'quvchilar: Bobolar aytadilar,
Bilim boylik kaliti.

O'qituvchi: Demak, bobolarimiz nabiralarini bilimli, aqlli va dono bo'lishlarini istaydilar. Siz bilim cho'qqilarini egallashga tayyormisiz?

O'quvchilar: Tayyormiz.

O'qituvchi: Unda bugungi darsimizni boshlaymiz. Darsimiz shiori:

O'quvchilar: Matematika fanlar ichra shox,
Uning sirlaridan bo'lamiz ogoh.

O'tgan mavzuni mustahkamlash.

O'tgan dars mavzusi “ 50 dan 59 gacha bo'lgan sonlar” mavzusini mustahkamlash maqsadida “Sonlarning tarkibini to'ldiring” topshirig'ini interfaol doska orqali bajaradilar.



O`quvchilar rag`batlantiriladi.

Yangi mavzu bayoni.

Mavzu e`lon qilinadi. Likopchanning birinchi qavatidagi mevalar o`nliklarni bildiradi, 6 o`nlik 60 ekanligi tushuntiriladi. Ikkinchi qavatiga bittadan mevalar qo`yib boriladi. $60+1=61$ $60+2=62$ Shu tarzda mavzu tushuntiriladi.



Sinfga sanoq sonlar taklif etiladi. Barcha sonlar so`zga kirib, o`zlariga ta`rif beradilar:

Bir kuni sanoq sonlar

Xuddi tirik insonlar-

Kabi suhbat qurishdi

Tizilishib turishdi.

Birinchi gapirdi "Bir"

BIR- "1"

-Bir degan sanoq sonman.

Sanash uchun osonman.

Bitta yutak , bitta bosh.

Bitta oyu, bir quyosh.

Ona –Vatan yagona,

Yer shari ham bir dona.

IKKI-"2"

-Ikki degan nomim bor,

Ikki "bir"dan men tayyor.

Ikki qo`l ,ikki oyoq.

Ikki ko`z, ikki quloq.

Ota-ona ikki jon,

Ikkisi ham mehribon.

UCH-“3”

-Uchta “bir”man, nomim-uch
Birlashganda bo`lar kuch.
Qarang uchta g`ildirak
Velosipedga kerak.
Uch og`yni botirlar,
Unda uchayotirlar

TO`RT-“4”

-Men to`rt degan raqamman
Ikkita “ ikki”dan jamman.
Bo`lsa ikki juft o`rtoq
To`rtta bo`lar o`sha choq.
Bir yilda to`rtta fasl,
Bir biridan asl.

BESH-“5”

-Besh degulik nomim bor
Raqamlar ichra ilg`or
“Bir”, “bir” qo`shsa- anchaman
Qo`ldagi besh panjaman.
Besh olib o`qish marra
Yulduzimiz besh qirra.

OLTI-“6”

-Beshdan keyin – oltiman.
Raqamlarning oldiman.
Ikki “uch”ni qo`shsang bas,
Hech qachon sedan chiqmas.
Ota-ona to`rt bola
Bo`lar katta oila.

YETTI-“7”

- Mening nomim yettidir,
Endi demanglar mitti.
Oltidan bitta kamman,
Yetti yulduzman, to`pman.
Yetti kun hafta bo`lar.
Haftalardan oy to`lar.

SAKKIZ-“8”

-Sanamay demang sakkiz,
Ikki “to`rt”ni qo`shsangiz-
Hosil bo`laman shu on,
Yodda tuting har qachon.
Men- yettining akasi,
Sanoq sonlar sarasi.

TO`QQIZ - “9”

Men to`qqizman, to`qqizman.
Sonlar ichra yolg`izman.
Sakkizdan bitta kata.
Bilib qo`ying, albatta.
Uch joyda uch bo`lsa jam
Hosil bo`laman shu dam.

NOL-“0”

Tanishaylik nomim –nol.
G`alatiman, ogoh bo`l.
Agar men yolg`iz tursam
Qimmatim yo`q sira ham.
Qo`shilsam-chi sonlarga-
Kuchli akajonlarga
Qimmatim oshar takror,
O`nu yuz, ming, million bor.
Sonlar yordamoda 60 dan 69 gacha bo`lgan sonlar hosil qilinadi, xona birliklari asosida tushuntiriladi.

1-misol og`zaki bajariladi. Sanoq sonlar yordamida 60 dan 69 gacha bo`lgan sonlar hosil qilinadi, xona birliklari yuzasidan tahlil qilinadi.

O`quvchilar har bir son yuzasidan O`zbekiston bilan bog`liq ma`lumotlar aytib o`tadilar:

60- 2016-yil “O`zbekiston adabiyoti va san`ati ” gazetasi o`zining 60- yilligini nishonladi.

61-62- O`zbekistonda aholi zichligi 1 kvadrat kilometrda 62 kishini tashkil etadi. Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashab kelmoqda.

63-64-O`zbekiston pasporti jahonning eng kuchli pasportlari reytingida

64-o`rinni egalladi. O`zbekiston fuqarolari jahonning 53 mamlakatiga vizasiz kirishi mumkin.

65-O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida:” Farzandlar otalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’iy nazar , qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi “ deb belgilab qo`yilgan.

66-67- O`zbekistonda insonlarning o`rtacha umr ko`rishi 67 yoshdan 73 yoshga yetdi.Sog`liqni saqlash tizimini rivojlantirish

68-69-Darslikdagi 2-masalani o`quvchilar daftarlarida bajaradilar.Masalaning sharti o`qiladi va qisqa sharti doskada yoziladi. O`quvchilar masalani yechadlar. Ochildi – 69 ta ch.

Olib keldi – 9 ta

Qoldi - ?

Yechish: $69-9=60$ (ta ch.)

Javob: 60 ta chinnigul qoldi.

“Yaxshi niyat” hikoyati(sahna ko`rinishi)

Boy:

- Assalomu alaykum, bobo. Nima qilyapsiz?

Chol:

-Vaalaykum assalom. Ko`chat ekyapman, bolam.

Boy:

-Bobo, o`zingiz qarib qolibsiz. Ko`chat ekib nima qilasiz?Hali bu kochat meva berguncha, bormisiz, yo`qmisiz?

Chol:

-To`g`ri bolam, qarib qolganman. Lekin, bu daraxtning mevasini men yemasam, nabiralarim yer...

Boy: (xursand bo`lib)

-Yashang, bobo. Shu niyatingiz uchun mana bu xaltadagi tilla sizga. (xaltani beradi)

Chol:

-O`g`lim,rahmat.Ko`rdingmi, boshqalarning daraxti yillar o`tib hosil beradi. Mening daraxtim hozirning o`zida hosilga kirdi.

Boy: (yanada xursand bo`lib)

-Sizga yana bir xalta oltin hozirjavobligingizga mukofot bo`lsin.

Chol: (xaltani olib)

-Qulluq, bolam. Boshqalarning daraxti yilda bir marta hosil beradi. Mening daraxtim bir kunda ikki marta hosil berdi.

(Boy xursand bo'lib, kuladi)

Mulozim:

-Hurmatli boy ota, tezroq ketaylik. Chol hamma boyligingizni olib qo'yadi.

(Boy va mulozimi ketadilar)

Chol: (odamlarga qarab)

-Bolalarim, yaxshi niyat bilan daraxt eking. Yurtimiz obod, dasturxonimiz to'kin bo'lsin.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

3-misolni o'quvchilar ham doskada, ham daftarda bajaradilar.

$$50+9=59$$

$$60+9=69$$

$$37-7=30$$

$$30+8=38$$

$$61-1=60$$

$$60+7=67$$

$$40+6=46$$

$$65-5=60$$

Dam olish daqiqasini o'tkazish.

Ingliz tilida musiqali qo'shiq aytiladi.

4-misol bo'sh kataklarni to'ldirishda o'quvchilar kesma raqamlar yordamida kerakli sonni ko'rsatadilar va sonlarni o'sish tartibida joylashtiradilar. Og'zaki savol-javob orqali o'quvchilar e'tibori 60 dan 69 gacha bo'lgan sonlar ketma-ketligi, tartibi hamda tarkibiga qaratiladi.

60 61 62 63 64 65 66 67 68 69

5-masala og'zaki bajariladi:

VI. Yangi mavzuni mustahkamlash. Daftarda berilgan topshiriq darchalarni to'ldirish orqali bajariladi.

60 dan 69 gacha bo'lgan sonlarga doir bilimlarini mustahkamlash.

Darsni yakunlash.

Darsga faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa

Darslikdagi 6-misolni bajarish yuzasidan tavsiyalar beriladi.